

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR
UYUSHMASI

MOHIRA DINIQULOVA

YURAKKA MAKTUB

She'rlar



TOSHKENT
“ADABIYOT”
2024

Badiiy rahbar:
Sirojiddin SAYYID

Mas'ul muharrir:
Botir ERGASHEV

Nashr uchun mas'ul:
Iroda RAHMONALIYEVA

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan an'ana-viy tarzda o'tkazilib kelinayotgan Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminarida 2024-yildan boshlab mamlakatimizning turli hududlarida faoliyat yuritayotgan ijod maktablari o'quvchilari ham ishtirok etishmoqda. Atoqli adiblar nomi bilan atalib, ta'lim jarayonida tilimiz va milliy adabiyotimizni chuqr o'rganishga, badiiy ijodga alohida ahamiyat berilayotgan mazkur o'quv dargohlarida badiiy ijod bilan shug'ullanayotgan ko'plab yoshlar yetishib chiqmoqda.

Ijod maktablarining eng iste'dodli o'quvchilari ijodi kitob holida chop etilib, Siz adabiyot muxlislari hukmiga havola etilmoxda. Ulardan biri **Hamid Olimjon va Zulfiya nomida-gi ijod maktabi** o'quvchisi **Mohira Diniqulova**. Muallif hali yosh. Uning yozganlarida ma'lum kamchiliklar bo'lishi tabiiy. Lekin unda o'qish, o'rganish, izlanish, o'zini ijodiy jihatdan yuksaltira borish imkoniyati bor. Bu uning o'ziga bog'liq.

Kitob orqali yosh muallifning ko'ngil bitiklarini o'qib, uning ijod bulog'dan bahramand bo'lishingiz mumkin.

ISBN 978-9910-9372-8-6

© M.Diniqulova, 2024
© "Adabiyot", 2024

SARLAVHASIZ

Sarlavhasiz mavzusi bor bu dunyoning,
Balki dolzarb, balki qisqa – ikki satr.
Boshi nima, oxiri qay yo'sinda-yu,
Ma'lum bo'lmas yo'llariga boshlar taqdir.

Noma'lumdir bosilajak ikki qadam,
Hamma narsa mavhumlikda qolib ketgan.
Yashirindir har bir dam-u lahzalar ham,
Barcha hislar berkitilgan joyga yetgan.

Insonlar-chi, jim qoladi sukunatda,
Barchasi ham tuy'usiga sandiq bo'lgan.
Yuzlarida javobi yo'q bir masala,
Bir-biriga topib bo'lmas mantiq bo'lgan.

Yo'llar ketgan pinhoniylik manziliga,
Aylanadi faqat mavhum tushunchalar.
Nega hayot tillarida yo'q tarjima,
Ifodaga qiynaladi lab shunchalar.

Sarlavhasiz mavzusi bor bu dunyoning,
Umr hukmrondir, umrimiz haqdir.
Boshi nima, oxiri qay yo'sin tugar,
Ma'lum bo'lmas yo'llariga boshlar taqdir.

MUHABBATIM

Qo'y, osmon, yig'lama, nima qilasan
Dardimga o'zingning dardingni qo'shib?
Yolg'iz yig'lamasin dedingmi yoki
Sening ham qalbingda g'amlaring jo'shib.

G'amidan chinqirib gumburlayapsan,
Alaming yashirmay shunday oshkora.
Men-chi, men ichimdan gumburlayapman,
Chaqmoq chaqayapti, lekin pinhona.

Balki sening yoshing dengizdek kelar,
Balki to'ldiradi butun dunyoni.
Balki mening yoshim tomchingcha kelmas,
Faqat yoshim emas dardim bayoni.

Yoshimda ifoda sog'inchim, sevgim,
Vujudimni to'ldirar faqat muhabbat.
Muhabbatsiz yashash mumkinmi, axir?
Mening muhabbatim, sevgim – Muhammad.

Qo'y, osmon, yig'lama, nima qilasan?
Bu – mening sog'inchim, mening bir yo'llim.
Yoki sog'indingmi Rasulullohni?
Biz sizni sog'indik, sizni, Rasulim.

ONAMGA MAKTUB

Ona, sizga maktub boshladim,
Uzoq xotiraga xayolim qadab.
Qalamim qoralab bir bor yozmabman,
Maktub yoki she'r – sizga atab.
Bir shoirni tug'ibsiz, ona,
Yozolmagan sha'ningizga bayt.
Shoirmagan, deb qanday yuribdi,
O'zgalarni yozadi faqat.
Kerilmasin, ayting, bunchalar
Ayting unga kekkaymagin deb.
Vaqt keldi endi ayamang,
Bir kun esi kirib qolar deb.
Ona, qarang, bu taqdir meni,
Erkalatib katta qilyapti.
Lekin sizga bergen yuklari,
Yuragimni chuqur tilyapti.
Boshingizga tushgan sinovning,
O'ndan birin ko'rganimcha yo'q.
Olislarda holingiz bilmay,
Yuribman-da ko'nglim qilib to'q.
Betob bo'lsam, bemor bo'lsam men,
Darmon izlab hamma tomondan.
Lekin sizga betoblik tegsa,
Qaytmagan-ku menday yomondan.
Ona, ichim sukutda qoldi,

Bilmam, nega shunaqaman men.
Koringizga yaramayapman,
Qanaqaman, qanaqaman men?
Dunyo o'zi sizga yaralgan,
Siz dunyoning borisiz, ona!
Kasal bo'l sam doriga ketmang,
Siz o'zingiz dorisiz, ona.
Tashvish kelsa mening boshimga,
Qayg'urdingiz, chekdingiz g'amim.
Siz borsizki, faqir dunyoda
Hech narsadan qolmagan kamim.
Mag'lubiyat yoshlar to'ldirsa,
Ko'zlarimning qorachig'iga.
Aylanasiz farishta misol,
Bolangizning suyanchig'iga.
Sizda qanday mehr bor, ona?
Faqat meni o'ylayverasiz.
Hech narsani qoyil qilmadim,
Nega maqtab so'ylayverasiz?
Hamma sini bilaman, ona,
His qilyapman, sezib turibman.
Gaplarim bor ichimda qolgan,
Aytolmasdan sokin yuribman.
Men shunaqa tili qisiqman,
Ich-ichimda saqlab yuraman.

Aytolmayman birgina so'zni:
Ona, sizni yaxshi ko'raman.
Yig'layapman, yig'ladim, ona,
Oldingizda ayblarim cheksiz.
Siz – jannatim, jonim, jahonim,
Siz men uchun farishtadeksiz.
Ona, meni duolar qiling,
Yoningizga kulib qaytaman.
Siz tufayli zafarlar quchsam,
Eng avvalo, sizga aytaman.
Siz-la o'tgan lahzalar, onlar,
Xayolimdan bir zum ketmaydi.
Tugamoqda maktubim, biroq
Yozolmayman kuchim yetmaydi.
Siz men uchun keraksiz, ona,
Voz kechaman dunyolaridan.
Ey Allohim, meni ayirma,
Onam qilgan duolaridan.
Yukingizni hozirlayvering,
Hajga olib boraman, ona.
Yuragimda asragan so'zim:
Sizni yaxshi ko'raman, ona,
Sizni yaxshi ko'raman, ona!

SHUKUR QILING

Insonda ajoyib fazilatlar jam,
Adog'in topishga qodir emasmiz.
Faqatgina insondir dunyoga hakam,
Lek doimo ham nodir demasmiz,
Vaqtি kelsa biz ham zo'r yaramasmiz.

Kishi fazilatin sanamoq uchun
Everest cho'qqisin etmoq kerak zabt.
Biroq illatlarin hisoblash nechun,
O'sha cho'qqidan tushganday zahmat,
Hatto qilolmaymiz bu uchun toqat.

Insonga yarashgan a'lo xislati,
Eng avval bordir qalbida shukur.
Ammo ba'zilarning bordir minnati,
Xayolini egallar razolat, kufr,
Ularning yonida shaytoni turur.

Dunyo sinoviga qilingiz sabr,
Ko'p ham nolishlarni yoqtirmas Alloh.
Oldingizda turibdi oxirat, qabr,
Alloh kechirimli, yagona panoh,
Qilingan amalga faqat u guvoh.

Siz boysiz, jismingiz, joningiz tirik,
Qo'lingizda ne bo'lsa shukur qilingiz.
Qiyomatda turmangiz boshingiz egik,
Duolarga ochilsin har dam qo'lingiz,
Shunda ochilgaydir jannat yo'lingiz.

QUSHLAR

Mana, qish ham keldi. Qara qushlarga,
Uzoq-uzoqlarga uchib ketyapti.
Xayrlar aytishib, qanot qoqishib,
Iliq diyorlarga borib yetyapti.

Men ham ketgim kelyapti zamin qishidan,
Bu sovuq dunyoning g'azab, nishidan.
Mening qolgin kelmaydi qahratonlarda,
Charchadim dunyoning tashvish, ishidan.

Meni olib keting bu yerdan, qushlar,
Iliq diyorlarning diydorlariga.
Mening nafaslarim qoldirib ketmang,
Bu yerning sovuqlik g'uborlariga.

Zaxchalar yonida qoldirmang meni,
Qarg'alar tomonga itarmang sira.
Ularda qoralik, sovuqlik hukm,
Ularning dunyosi shunchalar xira.

Meni dunyoyimga olib ketinglar,
U yerda yoz bo'lsin, bahori bo'lsin.
Saxovati bo'lsin, bo'lsin ibodat,
Oqibatlar oqqan anhori bo'lsin.

Meni olib keting bu yerdan, qushlar...

XAYR, MAKTABIM

Mana, maktab oxirlab qoldi,
Imkonim yo'q so'nggi minutda.
Xayrlashuv dilga g'am soldi,
Maktab endi bir dam unut-da.
Ketyapmiz biz maktabni tashlab,
Lek xotira qoldi bizlarda.
So'nggi soat yurakni g'ashlab,
Alamli dam oqar ko'zlarda.
Har bitta yosh bitta xotira,
Sho'x bolalik unda mujassam.
Xayolimdan o'chmaydi sira,
Iztirobdan xavotir u ham.
Daftar, ruchka izlab yurishlar,
Bezor qilgan edi bir zamон.
Endi konsept, insho yozishlar
Sog'inadi yuragim yomon.
Agar bexos darslar yoqmasa,

Juftagimiz rostlab qolardik.
Undan qochib bunga tutilib,
Bunisidan ikki olardik.
Sog'inaman darsdan qutulib,
Eshiklarga qulf solishimiz.
Qo'limizda sumka ko'tarib,
Do'stlar bilan dam olishimiz.
Xayr voqealar, xayr hodisa,
Xayr ikkilarim, xayr beshlarim.
Seni yo'qlab qaytaman yana,
Oldimda bor ko'plab ishlarim.

OTA

Ota...

Ko'ryapsanmi anov tog'larni?
Sen tog'day yuklarni boshda ko'tarding.
Men yelkangda ko'rdim asov tog'larni,
Lekin... Dardi yo'qdek kulib o'tarding.

Ota...

Ko'ryapsanmi anov xirmonni?
Bizning qorin to'ydi o'sha xirmonda.
Biz qorin g'amini yegandik faqat,
Sen esa hali ham o'sha armonda.

Ota...

Ko'ryapsanmi, anov sovuq qish,
Lablaring sovuqdan demaydi bir un.
Bizlar po'stin kiyib sovuqda qotdik,
Senga esa qalindek tuyuldi yupun.

Ota,

Otajonim,

Mehribon otam,

Qara, ko'ryapsanmi, qara, qaragin.

Ko'rmayapsan, bilinmaydi, sen-ku sezmaysan,
Umrining biz uchun ado bo'lganin.

Ota,
Otajonim,
Davlatim otam,
Men ko'rdim sochingda oppoq tolangni.
"Kel, dardingni olayin", – demadim bir bor.
Kechiolsang, kechir aybdor bolangni.

Ota...
Ko'ryapsanmi qalbimda ishonch?
Yoningga ishonching oqlab boraman.
Meni duolaring qo'llasa abad,
Men o'sha sen kutgan farzand bo'laman.

ONALAR SOATI

"Soat to'qqiz bo'ldi", – deya uyg'otganda onalar,
"Eh-he shuncha uxladimmi?" – hayron qolar bolalar.
Yelday yelib, yugurib soatiga qarashsa,
Soat endi oltiga asta-asta qadalar.

Soatlarni taqqoslab, tekshirishib har birin,
Fosh qiladi bolalar onajonlarning sirlari.
Bu holatda aqlingizga, balki, hayrat to'ladi,
Onalarning soati oldinroqda bo'ladi.

KO'K DARVOZA

Muhammad Yusuf she'riga nazira

“Ko‘k darvoza, ortingda bir qizni ko‘rdim”
Qo‘liga suv to‘la chelak ko‘targan.
Nahotki bilmayman, ko‘rmaganman hech,
Ko‘chamdan bir suluv malak o‘tarkan.

Ko‘k darvoza, yashirding shunday qizingni,
Va uni qizg‘onding, rashk qilding mendan.
Har kuni ko‘z tikib, poylab izingni,
Bir kun tortib olay qizingni sendan.

Ko‘k darvoza, ko‘ksimda ko‘kday dardim bor,
Seni taqillatsam ketar g‘oyibga.
Nahot sevib qoldim, dil bog‘ladim men,
Sevgim eshik ochdi bu g‘aroyibga.

Ko‘k darvoza, suluvga xatimni yetkaz,
Men uni kutaman buloq boshida.
Aytgin tezroq kelsin, jilmayib kelsin,
Bir o‘g‘lon yigitdek turay qoshida.

Ko‘k darvoza, hali ham bedorlikdaman,
Nega chaqirmaysan hanuz qizingni?
Yoki ranjidimi qizginang mendan?
Yoki izlab boray o‘sha izingni.

... Ko'k darvoza, ortingda bir qizni ko'rdim,
Egnida oq libos, oppoq bir libos.
Unda yosh, menda yosh, ayb faqat menda,
Eshigin ertaroq qoqmadim, xolos.

SIZ BILAN KETAMAN

Uzoq manzil tomon yugurib-yelib,
Rasululloh ortingizdan shoshib boryapman.
Madinaga meni ham olib keting deb,
Yo'lingizda muhabbatdan toshib boryapman.

Yo Rasul, yo Rasul, yo Muhammadim,
Ismingiz aytmoqqa tilim shoshqaloq.
Yuragim vujudga sig'maydi sira,
Muhabbatim jo'shar, bu sevgim chatoq.

Shamollar, esasiz har joyda, har vaqt,
Rasulim yoniga borasiz, shaksiz.
Yetkazing salomim, sog'inchim, sevgim,
Yo Rasul, Muhammad, menga keraksiz.

Sizni ko'rgim kelar tush-u hushimda,
To'xtab turing, Rasul, yetib olaman.
Sizsiz nurab qolgan dunyoni tashlab,
Siz-la Madinaga ketib qolaman.

UCHRASHAMIZ XAYRLASHGANI

Qushlar ketib janubga tomon,
Qaytib kelar sayrashgani.
Bizda esa tuyg'ular qaytmas,
Uchrashamiz xayrashgani.

Senda qolgan barcha hislarni,
Yuragingga ko'mib qo'ygin jim.
Menga yozgan xatlarining bekor,
Barchasini qilaman g'ijim.

G'ijim xatlar yozilar, lekin
G'ijim ko'ngil yozilmayapti.
Senda qolgan qalbim ohlari,
Nahot senga sezilmayapti.

Mana, takror o'zimni ayblab,
Qayta-qayta yuragim tildim.
Borolmadim o'zimni shaylab,
Seni o'zdan o'zim yo'q qildim.

Yolg'iz qolsin bechora yurak,
Endi senga dardim yormayman.
Menga neni aytishing kerak,
Yor, to'yingga aytsang bormayman.

Bo'ldi, yetar, qo'limga tutma,
Ajralishga bir taklifnoma.
Ketsang qaytma yo'laklarimga,
O'zgasining yo'lidan qolma.

Atrofimda yellaring yelib,
Bor deyishar yorning uyiga.
Oq libosda ko'ra olmayman,
Jo'r bo'lmayman to'yning kuyiga.

Hammaside qizg'ongan gulim,
O'zga uyga bo'lar kelinchak.
Endi xayol qilmayman uni,
Endi ko'zlar bo'lmas mushtarak.

Qushlar ketib janubga tomon,
Qaytib kelar sayrlashgani.
Ming kutsam ham endi qaytmaysan,
Uchrashamiz xayrlashgani.

BUGUNGI BEMOR

Eshit, qichqiryapti, dodlayapti u,
Ovozi alamli, og'ir, faryodli...
Balki u shamolning vahimasidir.
Balki dengizlarning titroq sadosi.
Balki bu qushlarning buzuq navosi.
Tingla, eshitilar undan nadomat,
Balki osmonlarda chaqin uryapti.
Balki ochilgandir samo darchasi,
Ko'z yoshlarning to'kildi qancha-qanchasi,
Yuragining tilib parcha-parchasin,
Bugun alamidan sochdi barchasin.
Dodlayapti, uning bityapti kuni,
Unda tiriklikdan alomatlar yo'q.
Kasal xuruj qilyapti, dardi bedavo,
Uning bag'rida hech salomatlar yo'q.
U saraton bo'lгandi, kesib tashlashdi,
Bechora bemorning yashil sochlarin.
Uning o'pkasida havo qolmabdi,
Ketkazib bo'lmaydi chang-u gardlarin.
Qon ham bejo oqar, tanada suv yo'q,
Hatto ko'z yoshidan chiqmas chuchuk suv.
Uning kuni bityapti, tugayapti u,
O'lib qolmasmikin, qo'rquv bor, qo'rquv...
Ko'zlaridan yosh chiqar, yoshlari loyqa,

Go'yoki ko'rsatar bizning aksimiz.
 Eshit, chorlayapti bizni yordamga
 Lekin yuqumli deb bunga qarshimiz.
 Balki, uning dardiga davo qolmadi.
 Uni davolarlik daho qolmadi.
 U o'limga yaqin, juda ham yaqin.
 Axir unda bir nafaslik havo qolmadi.
 Bitayapti kuni, tugayapti u,
 Endi unda biz qilarlik savdo qolmadi.
 Eh, qara nimalar qilding, odamzod?
 O'z boshingga o'zing solding, odamzod.
 U senga uy berdi, berdi bog', dala.
 Lek sening bergenning yagona azob.
 Kecha tiniq-tiniq suvlarni ichding,
 Bugun loyqalatib daryosin kechding.
 Sen qushlarni olding, olding hayvonni,
 Endi u kechirsin senday hayvonni.
 Barcha jonzot uning bolasi edi,
 Bag'ridagi guli, lolasi edi.
 Odamzodga keldi "QOTIL" degan nom,
 Sen nimaga yarading, qara, odamzod?
 Axir u ham seni qo'yarmi omon,
 U ko'rganday ko'rgin sen ham bir azob.
 Uyingni suv bosar, cho'ktirar seni,
 Yuvib ketar bisotda boring-yo'gingni.

Shunda anglab yetarsan, bilarsan shuni,
Qaytarib olarsan otgan o'qingni,
Bir kun oyog'ingni olov yondirar,
Bir kuni boshingga tomadi lava,
Bir kun yonib tugab bitmasdan oldin,
INSON! Gunohingga tavba qil, tavba.
Bugun ojiz qolgan ona tabiat,
Harorati baland, qizib ketyapti,
Bugun u insonning gunohin sanab,
Yuziga ajindek chizib ketyapti.
Bemor bo'ldi bugun ona tabiat,
Koinot deb atalgan shifoxonada,
Jarrohlik xonasi. Shifokori yo'q.
Og'ir ingrab qo'yar, ora-orada...

JAZOSI YO'Q O'G'IRLIK

Bir joy borki, qoidasi:
Qilmish qidirmish emas.
O'g'rilik qilinsa ham
Birov bundan pand yemas.

Javobgarlik yo'q, hatto
Ham jazo, ham alamlar.
Foyda qilar mактабда,
Ruchkasi yo'q odamlar.

UNI SEVIB EL TILGA OLUR

Taqdir yo'llarining o'ttiz to'rt yilin,
Bezadi goh shodlik, gohi xazonlar.
Qalamlar biladi g'ussakash qo'lin,
Umri qarich ekan, ojiz mezonlar.

Lekin baxti edi vodiylar kezish,
Vatan tuprog'iga joni to'tiyo.
Muhabbat niholdek qalbda urar nish,
Barglari umidning parchasi go'yo.

Hayot asli unga mashaqqat emas,
Boshida bir toj-u muayyan sarir.
Hayot sinovini sinov ham demas,
Sinov bardoshlardan to'qilgan harir.

Muhabbat og'ushi erkalab tunlar,
Zulfiya vafosi berib hayajon.
Tarabnok porlagay hatto mardumlar,
Ishq bilan kuylasin Hamid Olimjon.

Baxtlar kuychisiga ilhomlar sherik,
Ahli olam qalbiga oshiqlik solur.
U o'lmagay abad, dillarda tirik,
Uni sevib har dam el tilga olur.

QICHQIRIQ!

– O'ldimi?
– Tirik, xayriyat...
Lek o'limga yaqin keldi tabiat.
Vatan qachon Vatan bo'ladi?

Uka: – Hoy, akajon, ichkari kiring,
 Ko'rarmidik futbolni birga.
Aka: – Uka, yana O'zbekistonmi?
 Yutolmaydi botsa ham terga.
Uka: – Balki yutar, xulosa qilmang,
 O'zbeklarni qo'llaylik biroz.
 Hech bo'lmasa bobomga ayting
 Boshlanishga juda qoldi oz.
Aka: – Hey, ukamey, yutmaydi baribir,
 O'zbekkamas futbolda qolish.
 Bobomni ham bezovta qilma,
 Uxlayapti boshida bolish.
Uka: – Boshlanyapti.
Aka: – Ko'rmayman, baribir.
 Yutqazadi, uyatga qolar.
 Shu safar ham yutqazib bersa,
 Bu o'zbekning o'lgani bo'lar.
Nabira: – Bobo, bobo, uxlayapsizmi?
Bobo: – Nima deysan, bolam, shu tobda.
Nabira: – Bobo, mana, o'zingiz qarang,
 Men bir narsa ko'rdim kitobda.
Bobo: – Hah, bolam-a, kitobing o'lsin,

Tush ko'ribman, tepding beliga.
Tushimda bir o'zbegin qizi,
Shuhrat olib kelmish eliga.
Allohim bir karomat qilib,
Shu qizchaga berdi Nobelni.
O'zbeginda ilk bora deya
Xursand qilar emish bu elni.
Ilohim, shu tushginam mening,
O'ngidan ham kelsa bo'lar zo'r.
Ana keyin O'zbekistonga,
Maqtovlarning yog'ilishin ko'r.
O'zbekiston, farzandlaring bor,
Yuzlari-chi misoli oftob.
Ha, o'g'lim, sen nima deganding,
Qani o'sha sen aytgan kitob.

Nabira: – Mana, bobo, bu yerga qarang,
Yozib qo'ygan surnayni chang deb.

Aka: – Nashrni ham eplolmabdi-da,
Aytaman-ku o'zbek garang deb.

Bobo: – Nima deding, sen uying kuygur,
Sen kimlarni garang deyapsan.
Bilsang agar shu garang xalqning
Sen minnatsiz nonin yeyapsan.
Men o'zbekman, demak, garangman,
Shunaqami, men garangman-a?

Aka: – Unaqamas, bobo.
Bobo: – Qanaqa?

Atyapsan-ku, garang deb mana.
Aka: – To‘g‘risi-da, o‘zbek orqada.
Boshqaruv ham tekkandir jonga.
Aniq-ku bu, bobo, tengligi,
O‘zbekiston O‘zbekistonga.

Bobo: – Shunaqami, demak, sen bola,
Tenglabsan-da o‘zingni o‘zga.
Vatanimning shuncha bergani
Ko‘rinmabdi bu nonko‘r ko‘zga.
Bilsang agar, bu jannat yurtga
Yaratganning nazari tekkan.
Vatanidan yuz burganlarga
Ulug‘larning hazari tekkan.
Vatan qachon vatan bo‘ladi?
Sendakalar xizmat qilganda.
Vatan uchun jon bermoqlikni,
O‘zlariga faxr bilganda.
Shuni bilgin, bu go‘zal yurtning
Bayrog‘ida Alloh nomi bor.
Agar gerbin aytajak bo‘lsam,
Alloh bergen ne’matdan timsol.
Xato qilma, Vatanni sevgin,
O‘z yurtingda o‘z qadring bo‘lsin.
O‘zga elga yurak bermagin,
Suyuk elda o‘z qabring bo‘lsin.

Uka: – Bobo, bobo, qani, tabriklang,
Gollar urdik, ko‘ring bu sonni.

Bobo: – Barakalla. Ey Yaratganim,
O'zing qo'lla O'ZBEKISTONni.

ONA TILIM

A.Oripov she'riga nazira

“Ona tilim, sen borsan, shaksiz
Bulbul kuyin she'rga solaman” ,
Tinglasam gar lolman bolingdan
O'sha boldan olgan lolaman.

Ta'riflashga bosh qotar, albat,
Chunki sendek tillar shayxi yo'q.
Azizlardan azizsan faqat,
Sadolaring qalbga tekkan o'q.

Quyosh yurtga bo'lsa qo'riqchi,
Nurlaridan yashnar dalasi
So'z mulkiga sergak tur, soqchi,
Bunda sensan onam allasi.

Ey, shirinso'z bizlar sen uchun
Minbaringda hozir bo'lurmiz.
Senga bo'lgan sadoqat haqqi,
Tilim, sen-chun fido o'lurmiz.

YURT OTASI

Sohibqiron, Mulki Turon,
Azmi jahon, durri durron.
Yurtga qalqon yurtboshimiz,
Azim boshi bo'lsin omon.
O'zbek xalqi, o'zligingdan,
O'zbegingdan o'zing quvon.
Chunki yurtning otasi bor,
Ko'ksingni ker, mardi maydon...

* * *

Shunday inson bordir, demak,
Vatan bag'ri gul-u chaman.
Xalqi bilan birga bo'lgan,
Bir xalq bo'lur u da'atan.
Yurtboshim, siz el ko'ksida
Jo'shib urgan bir yuraksiz.
Tun-u kun tinim bilmasdan,
El deya joni halaksiz.
Prezidentim, siz rahnamo,
Ishongay ahli zamon.
Olg'a qadam tashlaymiz,
Baxtli kelajak tomon.
O'zbekning shon-shavkatin,
Anglasin butun jahon.

Vatanga joni sadqa,
Biz o'sha jon, o'sha qon!

* * *

Sohibqiron, Mulki Turon,
Azmi jahon, durri durron.
Yurtga qalqon yurtboshimiz,
Azim boshi bo'lsin omon!
Tan-u joni bo'lsin omon!

* * *

Hazil she'r

Ko'zlarimda achchiq hasrat, achchiq damlar,
Mehnatimga yarashasi shu edimi?
Yuzlarimni siypalaydi shaffof namlar,
Menga birov bu tashvishni qil dedimi?

Qilmasam ham bo'lmas juda kerak, zarur,
Kunidamas kunda ko'zim yoshlasa ham.
Ko'z yoshimga tovon so'rab bir kun mag'rur,
Pichoq olib shartta sanchsam... Bu unga kam.

Meni yig'latmadi do'st-u yorlari,
Yig'latmadi turmushning arazi, nozi.
Meni har kun yig'latdi faqat va faqat,
Oddiygina ro'zg'orning oddiy piyozi.

MENDAN NIMA QOLAR

M. Yusuf she'riga nazira

“Mendan nima qolar?”

Bir satr siyoh.

Mendan nima qolar:

Taqdirga guvoh.

She’riyat tomonga karvon tortmasam,

Sog‘ingan yurakni qiynaydi bir oh,

Bir satr siyohga qadalgan nigoh.

Mendan nima qolar:

Buklangan qog‘oz.

Allanima qoralab

Qo‘yganman, xolos.

G‘ijimlangan qog‘oz ohanrabodek,

Meni shoirlidkan qilmaydi xalos,

Telbaman, telbalik shoirlikkha xos.

Mendan nima qolar:

Injiq bir qalam.

Barmog‘im titrar,

Titraydi tanam.

Ilhom kelganida sinib qolmasa,

Bechora qalamga bo‘ladi alam,

Lek hali ham u bor, tebranar olam.

Mandan nima qolar:
O'y, fikr, xayol.
Birini yozmasam,
Keladi malol.
Bir o'chirib, buklab, qayta yozmasam,
Shuncha o'ylaganim bo'ladi uvol,
She'rda uvol bo'lmasa bu qanday ahvol?!

Mandan nima qolar:
Go'zal xotima.
Go'zal bir shoirga
Go'zal xotira.
Muhammad Yusufni men kuylamasam,
Mening bo'm-bo'sh ko'nglim, to'lmaydi sira,
Shoirlar bo'lmasa, shoirlik nima?!

DARD

Hazil she'r

Dars paytida bitta dard, bitta orzu-istik bor,
Sabr va toqat bilan tanaffusga yetmoq bor,
Dars tugasa, quvonib uyga qarab ketmoq bor,
Yana bitta dard bor-u, darsga qaytib kelmoq bor.

INSON QASIDASI

Erkin Vohidov she'riga nazira

“Sobit-u sayyorada inson o‘zing, inson o‘zing,
Mulki olam ichra bir xoqon o‘zing, sulton o‘zing”

Koinot yelkasida, serquyosh o'lkasida,
Bekalar bekasida jahon o'zing, zamon o'zing.
Goh rozi, goh norozidir, bir ko'pidir, bir ozidir,
Bu dunyo tarozidir, o'lpon o'zing, mezon o'zing.
Noz-ne'matlar serobdur, ba'zan tush-u sarobdur,
Mehr ko'rmas xarobdur, dehqon o'zing, xirmon
o'zing.
Ikki dunyo farqi sabr, olam tuproq, tuproq qabr,
Ko'rsatib ham ko'rding jabr, yomon o'zing,
somon o'zing.
Goh unasan daraxt bo'lib, goh qolasan gulday
so'lib,
Lek baribir barglar to'kib, xazon o'zing, davron
o'zing.
Mol-davlatga devonasan, kibrdan so'ng
yagonasan,
Yaqinlarga begonasan, qo'rg'on o'zing, payhon
o'zing.
O'tga solib jismi jonni, pulga sotib tirik tanni,
Ustga yopib oq kafanni arzon o'zing, hamyon

o'zing.

Zamini olam musulmon, necha qalbda yashar
iymon,

Oyatlari dilda har on, azon o'zing, Qur'on o'zing.

Dunyo rohati – hordiq, zavollari qalbga yoriq,
Bu zaminda sen ham borliq, eson o'zing, omon
o'zing.

Ishonch bo'lsa, yo'llar ravon, o'zingga va Haqqa
ishon,

So'z-la ayladim bayon, bayon o'zing, farmon
o'zing.

Shukurlaring aytib yasha, yomon illatlaring
tashla,

Mudom maqsadlaring osha inson o'zing, inson
o'zing.

Mulki davlat farzandisan, yorug' yuzli dilbandisan,
Bilib qo'ygin haq bandisan, Turon o'zing, javlon
o'zing.

Ey Mohira, aytgin, nechun, neni dildan yozding
bugun?

Ijodlaring toshib butun, ummon o'zing, biyron
o'zing.

OYNAYI JAHONGA ARZ

Hazil she'r

Bekorchiman, ishim yo'q,
Biror ishga hushim yo'q.
Televizor ko'rishdan
Boshqa bir yumushim yo'q.
Oyim aytgan ko'p bora,
Televizorga tikilma.
Hozir uyda oyim yo'q,
Ko'rayapman reklama.
Eh, bu oynayi jahon,
Reklamaga juda boy.
Operator deganda
Boshqa ish yo'q, hoynahoy.
Bir soatlik kinoda,
Reklama o'ttiz minut.
Reklama tugaguncha,
Film ham bo'lar unut.
Reklamaning to'rida,
Cola, Pepsi, Fantalar.
Bunday paytda AQUA,
Dasturxon dan chetlashar.
Dena, Family, Chortoq
Uchradimi kasodga?
Har xil dori-darmon ham,
Tegib ketdi asabga.
Bitta og'rig'ing uchun,

Mingta dori tavsiya.
Tezroq sotilsin, deya,
Hatto berar aksiya.
Reklamada iPhone bor,
Kir yuvuvchi mashina.
Izlasang topiladi,
Mashinaga ham shina.
Reklamaga chiqmagan
Yerda yotgan tayoq qoldi.
Fanta, Cola ichildi-yu,
Ichilmagan buloq qoldi.
Katta bo'lib reklamaning,
Ildiziga bolta uray.
Reklamaga alohida,
Bitta telekanal ochay.

KAFOLAT

Hazil she'r

Javobsizga savol bermang,
Unda jimlik, sukut ko'p.
Vazifani uyg'a bermang,
Uyda vaqt yo'q, sukut yo'q.
Darsda uqlash, mizg'ishga,
Dam olishga ruxsat yo'q.
Demak, uyda dars qilishga,
Bizda ham kafolat yo'q.

OSON BO'LMAS

Hazil she'r

Oson bo'lmas o'quvchilik davri ham,
Ba'zan qiy nab qo'y ar oz-moz muammo.
Sinf dagi generalga bizlar qaram,
Hech qayerga qocholmaymiz bizlar, ammo.

Axir kerak matabda ham sho'x-shaddodlik,
O'rtasidan bo'lish kerak ba'zan darsni.
Bizni demang buzg'unchi-yu to'polonchi,
Qarab turing, zabit etamiz hali Marsni.

Hech o'ylamang, o'quvchining ishi oson,
Kechikkanda to'qish kerak bahona.
Bizga berib talay-talay topshiriqlar,
Ko'chirishga majbur qilar tobora.

Lekin bizlar ajoyib ham emasmiz,
Qiyin ishdan osongina ko'chir-ko'chir.
Gar sinfda chaqimchilar paydo bo'lsa,
Tepkilaymiz: ovozingni o'chir-o'chir.

Zerikkanda darsdan qochish kerak bo'lar,
Shuning uchun chanqab qolar tomog'imiz.
Shundan keyin qaytib darsga kirmaymiz,
Kirsak agar sinf xona qamog'imiz.

Dars paytida qorinchamiz sado berar,
Fikrimizni magazinga qaratamiz.
Dars tugasa, xolajonim, qarzga ber deb,
Sotuvchini “bankrot”ga uchratamiz.

Oson bo‘lmas alla aytgan o‘qituvchining,
Bir zumgina ko‘zin qilib shamg‘alat.
Sotuvchidan olganimiz kavshanolmay,
Qachon ovqat yerkanmiz, deb biz halak.

Ba’zan bot-bot hazil-hazil chin qilamiz,
Kimga yoqar, kimga yoqmas bu hazil.
Agar she’rim tegib ketsa ba’zilarga,
Xafa bo‘lmang, hazil tagi bo‘lar zil.

Faqatgina umidvorman bir narsadan,
Do’st-o’rtoqlar, kelib meni urmagaysiz.
Barchamizning sirimizni fosh qilding deb,
Peshonamda tayoq tirab turmagaysiz.

SAMOVIY JANG

Eshitdingmi, samoda bir samoviy jang bo‘pti?
Olishibdi yer bilan, nayza-qurol mo‘l bo‘pti.
Bir-birini savalab, bir o‘ng bo‘pti, so‘l bo‘pti.
Yengilibdi oxiri, yer baribir ho‘l bo‘pti.

O'QUVCHIGA RAHM QILING

Hazil she'r

Hali qancha yumush bordir boshida,
Charchoq bosar, vazifalar qoshida,
Bilinadi, hatto ko'zin yoshida,
O'qituvchi, o'quvchiga rahm qiling!

Yog'dirasiz masalalar yomg'irin,
Tunlari uxlamas, tush ko'rmas shirin,
Hatto g'iybat qilolmaydi bir-birin,
Ey ustozlar, o'quvchiga rahm qiling!

O'quvchining jajji boshi kompyutermas,
Fan kitobin yo'qotishi mumkin emas.
Chunki ba'zi qizg'anchiqlar kitob bermas,
O'qituvchi, o'quvchiga rahm qiling!

Bosh og'risa, tish og'risa – xiyonat,
Dars qoldirsang boshlanadi siyosat,
O'quvchi ham, axir sizga omonat,
Ey ustozlar, o'quvchiga rahm qiling!

Ey muallim, o'quvchi ham inson, biling,
Kundalikka ikki tushsa, og'rir diling,
Uchni ko'rib bexos sayrab ketar tiling,
O'qituvchi, o'quvchiga rahm qiling!

Ma'zur tuting, azizlar, gaplarim hazil,
Asli o'quvchilar ustoz-la ahil,
Ko'rsatadi bizlarga buyuk bir manzil,
O'qituvchi – asl gavhar inson, biling.

U bo'lmasa ma'rifat yo'q dunyoda,
Ular shohdir, bizlar esa piyoda,
Doim bo'lsin ular umri ziyoda,
O'qituvchi – chegarasiz qudrat, biling!

QOTILLARI BOR

Ajal yetib kelar barcha boshlarga,
Ajal olib ketar bir kun bizni ham.
Lekin qalbda qolgan tuyg'ularingni,
Ajal o'ldirmasa qiladi alam.

Qancha tuyg'ularim sarson bo'ldi-ya!
Ovvora bo'ldi-ya, giryon bo'ldi-ya!
Yurakda yashagan mingta hislarim,
Pichoqsiz o'lgani yomon bo'ldi-ya!

Bu dunyo shunaqa shafqat bilmaydi,
Uning yuragi yo'q johillari bor.
Tuyg'ular ajali bilan o'lmaydi,
Uni o'ldiruvchi QOTILLARI BOR!

QIZIQARLI NAVBATCHILIK

Hazil she'r

«Hashar elga yarashar»,
Deyishadi xalqimiz.
Bu so'zning ma'nosiga
Yetib qolgan aqlimiz.
Shuning uchun sinfda,
Qildik hammamiz mehnat.
Lekin ba'zi birovlar,
Qilmadi bunga toqat.
Bitta yigit, to'rtta qiz,
Hashar qilishdi birga.
Changlardan qolmadi iz,
Rosa botishdi terga.
Hamda aytib latifa,
Biram qilishdi hazil.
Endi ko'ring voqeani,
Hazil tagi bo'ldi zil.
Yigit chelak ko'tarib,
Gul uchun suvgaga ketdi.
Shu payt qizlar fikrida
Hazil avjiga yetdi.
Eshik yonida turib,
Qo'lida latta, supurgi.
Asta qadam qo'yishlar,

Yigitdan edi belgi.
Qoraydi eshik oldi.
Belgi berishdi qizlar.
Urdi, soldi yuziga,
Ko'kartirishdi yuzlar.
Oxiri urib-urib,
Qarashsa ne ko'z bilan
Ustozi qarar turib,
Shishib ketgan yuz bilan.
Qizlar yuzi qizarib
Turar edi xijolat.
Yigit kelib qarasa,
Bo'libdi qiziq holat.

YAXSHILARNING BAXTIGA

Yomonlik gar bo'lmasa,
Yaxshilik ham bo'lmasmish.
Dunyoda bu ikki nom,
Abadiya o'lmasmish.
Demak, o'zimga shior:
Yaxshilikka omon bo'l.
Yaxshilarning baxtiga,
Yaxshigina yomon bo'l.

ОY AFSONASI

Oy bekinib olibdi qarang,
Odamlardan emish xijolat.
Chiqmas ekan, chunki chiroyi,
Yer yuzida bo'lar tijorat.

Aybi ekan bechora oyning,
Sevishganlar yo'lin yoritib.
Oymomoni qilar xijolat,
Yigit tilin so'zga boyitib.

Ta'rificha, yonida suluv,
Oymomodan emish go'zalroq.
Oy o'rnida oy bo'lar emish,
Tug'ilganda oydan azalroq.

Nima emish, va'dani qarang,
Olib berar ekan oyni ham.
Oy bechora o'zni qo'yarga
Topolmaydi tunda joyni ham.

Shunday qilib yigit dastidan,
Oyginaga qarzlar yozildi.
O'n besh sutka qamoqqa deya,
Oy nomiga arzlar yozildi.

Ozodlikka yana chiqaru,
O'n besh kunda qarzga botadi.
Qarzlarini uzolmay oxir,
Yana o'n besh sutka yotadi.

Shundan beri o'sha yigitlar,
Oymomoni qo'ymas ekan tinch.
Oymomoda yurak jizillar,
O'n besh kunda bo'ladi notinch.

Yigitlarning va'dasi yolg'on,
Gapirsalar bo'lmasmikan chin.
Yuraverib oy ham qamoqda,
Orttirmasdi yuziga ajin.

ORZU

Hazil she'r

Kim ham orzu qilmaydi,
Orzusi yo'q inson yo'q.
Orzu misli karvon-u,
Lekin unga sarbon yo'q.
Gunohi yo'q deyishar,
Orzu qilgan kishining.
O'yi bilan band bo'lar,
Orzu degan ishining.

Orzum har kun amalda,
Yo'qdir mening ham qayg'um.
Uxlashni orzu qilgan,
Mening uyquchi uyqum.

CHARX AYLANAR

She'r yozmoqqa mavzu qolmadi,
Yozib bo'ldi ishqdan kuyganlar.
Yozmoqlikdan sira tolmadi,
Ham sevilgan, hamda sevganlar.

Ular yurar sevgisidan mast,
Quyiladi satrlar quyuq.
Yorim, deya bitaverarlar,
Ruboiymi yoki bir tuyuq.

Sevgisini qalam qildilar,
Ojiz qog'oz bag'rini dog'lab.
Eh, shoirlar sodda yurakni
Muhabbatga qo'yibdi bog'lab.

Ishqdan kuygan bechora oshiq,
She'rlarini to'qiyveradi.
Charx aylanar bu she'rni yana,
Ishqdan kuygan o'qiyveradi.

“KELAJAKSIZ TARIX YO‘Q”

Teskari faraz

“Tarixsiz kelajak yo‘q “,
Deydi xalqimiz dono.
Bu so‘zning zamirida
Bordir chuqur bir ma’no.
Lekin boshqa bir fikr,
Uyg‘ongandir bizlarda.
Kelajak ham muhimdir,
Tarix bosgan izlarda.
Aylangandir tarixga,
Ajdodlar kelajagi.
Endi o‘scha kelajak,
Tarixlar kelinchagi.
Biz bosib o’tgan yo’llar,
Bir kun tarix bo‘lajak.
Shuning uchun tarixga,
Asos bo‘lar kelajak.
Taraqqiyot beqiyos,
Bunisidan ko‘nglim to‘q.
She’rimning xulosasi:
“Kelajaksiz tarix yo‘q”.

NIDO QILAR

Nido qilar, butun dunyo nido qilar,
Chidolmaydi ko'ksidagi alamiga.
Inson bir kun bu dunyoni ado qilar,
Javob bermas dunyo inson talabiga.

O'g'rilikni ko'rdilar, xo'p, to'g'ridan ham,
Haqiqatning tugib qo'ydik tugunchasin.
Yovuzlikda o'tib tushdik bo'ridan ham,
Tushunmadik to'g'rilikning tushunchasin.

Adolatga ters qaradik yuzni burib,
Ma'nosiga aksincha bir mazmun qo'shdik.
Halol mehnat, harakatdan ma'ni topmay,
Vallomatning maqtoviga, pulga jo'shdik.

Qadr-qimmat yuraklarga berkitildi,
Mehr-u vafo, samimiyat boshqa tomon.
Ayting menga, insonlarga nima bo'ldi?
Ayting yoki kelyaptimi oxir zamон?

Nido qilar, butun dunyo nido qilar,
Chidolmaydi ko'ksidagi alamiga.
Inson bir kun bu dunyoni ado qilar,
Javob bermas dunyo inson talabiga.

* * *

Zoting tuproq, avloding tuproq,
Boshlanishing, avvaling tuproq,
Daqiqalar sanoq, umrimiz sanoq,
Birimiz kam yashar, birimiz uzoq.

Birimiz oqdirmiz, birimiz qora,
Biri shodon bo‘lar, biri dilpora,
Barcha qalbda iymon bo‘lsaydi zora,
Bo‘lmasmidi o‘z-la o‘zi ovvora.

O‘rningdan tur, yuzni bur qibлага tomon,
Bo‘lماgin kofir-u, bo‘lماgin yomon,
Bir kuni kelmasdan oxirgi zamон,
Itoat qil Allohga, ahli musulmon.

Quvonma boyliging, taxting, molingga,
Maymun yig‘lamasin bir kun holingga,
Bular xizmat qilar shu zavolingga,
Keyin tavba qilma bu uvolingga.

U dunyoga yig‘ganing, terganing bormas,
Allohim so‘rab ham joningni olmas,
U dunyoning so‘rog‘i, bilgin, osonmas,
Bilsang yaxshi inson do‘zaxda yonmas.

Tangrining bandaga mukofoti ko'p,
Sovg'asi ko'p uning, iltifoti ko'p,
Yaratganga, avvalo, sano aytgin xo'p,
Sajdaga borgin-u, joynamozni o'p.

Bizlar Alloh bergen jism-jondamiz,
Odam va Havvoda oqqan qondamiz,
Bugun issiq, erta sovuq tandamiz,
Qaytib ketmoq uchun kelgan bandamiz.

Alloohni sev, o'zgaga bo'limagin tutqun,
Taralsin qalbingdan chiroyli uchqun,
Kelganmiz Alloohni sevmoqlik uchun,
Ketamiz Allohga yetmoqlik uchun.

MUNDARIJA

Sarlavhasiz	3
Muhabbatim	4
Onamga maktub	5
Shukurqiling	8
Qushlar	9
Xayr, mактабим	10
Ota	12
Onalar soati	13
Ko'kdарвоza	14
Siz bilan ketaman	15
Uchrashamiz xayrlashgani	16
Bugungi bemor	18
Jazosi yo'q o'g'irlilik	20
Uni sevib el tilga olur	21
Qichqiriq!	22
Ona tilim	25
Yurt otasi	26
"Ko'zlarimda achchiq hasrat..."	27
Mendan nima qolar	28
Dard	29
Inson qasidasi	30
Oynayi jahonga arz	32
Kafolat	33
Oson bo'lmas	34
Samoviy jang	35
O'quvchiga rahm qiling	36
Qotillari bor	37
Qiziqarli navbatchilik	38
Yaxshilarning baxtiga	39
Oy afsonasi	40
Orzu	41
Charx aylanar	42
"Kelajaksiz tarix yo'q"	43
Nido qilar	44
"Zoting tuproq, avloding tuproq..."	45

UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 83.3(50'zb)

M 40

M 40 Diniqulova, Mohira

Yurakka maktub [matn]: *she'rlar/Mohira*

Diniqulova. – T.: “Adabiyot” nashriyoti, 2024. – 48 b.

ISBN 978-9910-9372-8-6

Adabiy-badiiy nashr

MOHIRA DINIQULOVA

YURAKKA MAKTUB

She'rlar

Muharrir: *M. Nurmetova*

Badiiy muharrir: *A. Umarova*

Sahifalovchi: *A. Qayimov*

Musahhih: *I. Isamuhammedova*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

“ADABIYOT NASHRIYOTI” MCHJ

Nashriyot litsenziysi: AI № AA 0043. 27.01.2020.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

Тел: (98) 128-30-04.

Bosishga 20.08.2024-yilda ruxsat etildi.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi 70x90 $\frac{1}{32}$.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 2.0.

Adadi 500 nusxa.



“MASHHUR-PRESS NASHRIYOTI” MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.